



4-SINF ‘OQISH SAVODXONLIGI’ DARSLIGIDA BERILGAN HIKOYA JANRIDAGI MATNLAR TAHLILI

Sobirova Nozimaxon Zohidjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim) 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4-sinf ‘O‘qish savodxonligi’ darsligidagi hikoya janridagi matnlar tahlili, hikoya janridagi matnlar o‘rgatishning innovatsion metodlari o‘rganiladi. 4-sinf ‘O‘qish savodxonligi’ darsligidagi hikoyalarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib chiqish va bu orqali o‘quvchilarda badiiy asar ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

Kalit so‘zlar: innovatsion metodlar, 4-sinf ‘O‘qish savodxonligi’, hikoya janridagi asarlar, badiiy asar, hikoya, interaktiv o‘qitish, zamonaviy texnologiyalar.

Annotation. This article analyzes narrative texts in the 4th grade ‘Reading Literacy’ textbook and explores innovative methods for teaching narrative texts. To study the specific aspects of the stories in the 4th grade ‘Reading Literacy’ textbook and thereby develop students’ skills in working on a work of art.

Keywords: innovative methods, 4th grade "Reading Literacy", works in the narrative genre, fiction, story, interactive teaching, modern technologies.

Аннотация: В данной статье рассматривается анализ повествовательных текстов в учебнике «Грамотность чтения» для 4 класса, инновационные методы обучения повествовательным текстам. Изучение особенностей рассказов по учебнику «Грамотность чтения» для 4 класса и тем самым развитие у учащихся навыков работы над художественным произведением.

Ключевые слова: инновационные методы, 4 класс «Чтение», работы в жанре рассказов, художественных произведений, повести, интерактивное обучение, современные технологии.



O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ta'lim nafaqat yosh avlodning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga, balki mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jamiyatni rivojlantirish va modernizatsiya qilishning eng muhim vositalaridan biridir. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali ta'lim tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'quv dasturlarining takomillashtirilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ushbu sohaning ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va asarlaridan olingan quyidagi iqtiboslar uning ta'lim, ilm-fan va jamiyat rivojiga bo'lgan yuksak e'tiborini aks ettiradi:

1. "Suvda cho'kmaydigan, o'tda yonmaydigan boyligimiz bilim. Bizda bundan ishonchliroq boylik yo'q.
2. 'Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi.

Boshlang'ich ta'lim insonning butun hayoti davomida oladigan bilim va ko'nikmalarining poydevori hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolalarning tafakkuri, xarakteri va dunyoqarashi shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim tizimi har qanday mamlakatning ta'lim strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi.

Hikoyani o'qitish metodikasi

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi.



Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.¹

Hozirda amalda qo'llanilayotgan **M.E.Toirova** muallifligidagi **“O'qish savodxonligi (4-sinf I qism)** darsligi bilan tanishib chiqamiz. Mazkur darslik **Toshkent 'Novda edutainment 2023. 79b.**²

Ushbu kitob 9 ta shartli belgilardan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

- savollarga javob bering;
- yodda tuting;
- izohli lug'at;
- bu qiziq;
- guruh bo'lib ishlang;
- diqqat bilan o'qing;
- tinglang;
- topshiriqni bajaring;
- uyga vazifa

Ushbu kitobda hikoya janriga oid 6 ta matnlar berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Sayroqi qushcha (Zamira Ibrohimova)
2. Marvarid (Meri Joslin)
3. Toshbag'ir (Jabbor Razzoqov)
4. Qanot qoqqan orzular (Hilola Hamdamova)
5. Yetti xazinaning biri (Hilola Hamdamova)
6. Kitob va boylik (Hidoyat Olimova)

U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova muallifligidagi **“O'qish savodxonli (4-sinf II qism)** darsligi bilan tanishib chiqamiz. Mazkur darslik **Toshkent 'Novda edutainment 2023. 78b.**³

Ushbu kitob 10 ta shartli belgilardan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

¹Qosimova K., Matchonov S., Gulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009. B. 113.

² M.E.Toirova. O'qish savodxonligi 1-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023 B. 79.

³ U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova. O'qish savodxonligi 2-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023 B. 78.



- savollarga javob bering;
- eslab qoling;
- izohli lug'at;
- bu qiziq;
- guruh bo'lib ishlang;
- diqqat bilan o'qing;
- og'zaki topshiriq;
- topshiriqni bajaring;
- mantiqiy topshiriq;
- uyga vazifa

Ushbu kitobda 3ta hikoya janriga oid matnlar berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- 1.Kichik ustoz (Ashurali Jo'rayev)
- 2.Bir hovli qush (Muhabbat Hamidova 1-qism)
- 3.Bir hovli qush (Muhabbat Hamidova 2-qism)

U.B.Aydarova, N.K.Azizova, muallifligidagi **“O'qish savodxonli (4-sinf III qism)** darsligi bilan tanishib chiqamiz. Mazkur darslik **Toshkent ‘Novda edutainment 2023. 78b.⁴**

Ushbu kitob 10 ta shartli belgilardan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

- savollarga javob bering;
- eslab qoling;
- izohli lug'at;
- bu qiziq;
- guruh bo'lib ishlang;
- diqqat bilan o'qing;
- og'zaki topshiriq;
- topshiriqni bajaring;
- mantiqiy topshiriq;
- uyga vazifa

⁴ U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O'qish savodxonligi 3-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023
B. 78.



Ushbu kitobda hikoya janriga oid 6 ta matnlar berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Arining qasosi (Muhabbat Hamidova 1-qism)
2. Arining qasosi (Muhabbat Hamidova 2-qism)
3. Nok (Latif Mahmudov)
4. Qoziq (O'tkir Hoshimov)
5. Tarbiya (Habibullo Qodiriy)
6. Ona kaklik (Azim Suyun)

U.B.Aydarova, N.K.Azizova, muallifligidagi **“O'qish savodxonli (4-sinf IVqism)** darsligi bilan tanishib chiqamiz. Mazkur darslik **Toshkent ‘Novda edutainment 2023. 78b.⁵**

Ushbu kitob 10 ta shartli belgilardan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

- savollarga javob bering;
- eslab qoling;
- izohli lug'at;
- bu qiziq;
- guruh bo'lib ishleng;
- diqqat bilan o'qing;
- og'zaki topshiriq;
- topshiriqni bajaring;
- mantiqiy topshiriq;
- uyga vazifa

Ushbu kitobda 9 ta hikoya janridagi matnlar berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Sirli sandiq (G'iyos Komilov)
2. O'tmishdan ertaklar (Abdulla Qahhor)
3. Maydondagi bolalar (Mahmud Murodov)
4. Telebola (Xudoyberdi To'xtaboyev 1-qism)
5. Telebola (Xudoyberdi To'xtaboyev 2-qism)

⁵ U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O'qish savodxonligi 4-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023 B. 78.



Yuqorida keltirilgan hikoyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunishga, undagi bilimlarni o'zlashtirishga, qolaversa tanqidiy fikrlash va xulosa chiqarishiga ham xizmat qiladi. Hikoyalar mazmunidan kelib chiqib o'z fikrlarini ravon bayon qila oladilar. Hikoyalar so'ngida notanish bo'lgan so'zlar lug'at sifatida berilgan. Mavzularni mustahkamlash uchun savol, topishmoq, maqol, tez aytish va testlar kiritilgan. Yuqorida kiritilgan topshiriqlar o'quvchilar mavzuni yanada yaxshi o'zlashtirishlari uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009.
2. M.E.Toirova. O'qish savodxonligi 1-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023
3. U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova. O'qish savodxonligi 2-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023
4. U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O'qish savodxonligi 3-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023
5. U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O'qish savodxonligi 4-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Novda Edutainment, 2023